# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI
# BOG‘OT TUMANI HOKIMINING
# QARORI

Bog‘ot shaharchasi, O‘zbekiston ko‘chasi, 18-uy

2021-yil 29-январ 106и-son Bog‘ot shaharchasi

Боғот тумани “Деҳқонобод” маҳалласи ҳудудида жойлашган “Боғот туман Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш бўлими”га қарашли “Кўп қаватли турар жой” бино ва иншоотларига бўлган эгалик ҳуқуқини белгилаб бериш тўғрисида

Тумандаги “Боғот туман Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш бўлими” раҳбари Э.Авезовнинг Боғот тумани “Деҳқонобод” маҳалласида жойлашган “Кўп қаватли турар жой” бино ва иншоотларига бўлган эгалик ҳуқуқини белгилаб беришни сўраб туман ҳокимлигига йўллаган 2020 йил 10 декабрдаги Х.О 3-6846-сонли сўровномасини, Боғот туман ҳокимининг 2018 йил 6 декабрдаги 3926қ-сонли, 2020 йил 1 майдаги 1077қ-сонли, 2020 йил 24 июндаги 1515қ-сонли қарорларига ҳамда Хоразм вилояти ер тузиш ва кўчмас мулк кадастри давлат корхонаси Боғот туман филиалининг 2020 йил 28 декабрдаги 4287-сонли маълумотномасини кўриб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси “Ер кодекси”нинг 7, 20, 29-моддалари ва “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонуннинг 6, 10 ва 25-моддаларига asoslaniб,

**Қ А Р О Р   Қ И Л А М А Н:**

1. Боғот тумани “Деҳқонобод” маҳалласи ҳудудида жойлашган жами қурилиш ости майдони 1351,92 квадрат метр, умумий ер майдони 4969,66 квадрат метрдан иборат бўлган ушбу “Кўп қаватли турар жой” бино ва иншоотлари “Боғот туман Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш бўлими”га тегишли эканлиги эътироф этилсин.

2. “Боғот туман Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш бўлими” раҳбари (Э.Авезов)га ушбу қарор қабул қилиниши муносабати билан ушбу “Кўп қаватли турар жой” бино ва иншоотларини давлат рўйхатидан ўтказиш мажбурияти юклатилсин.

3. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш туман ҳокимининг ўринбосари А.Курьязов зиммасига юклатилсин.

**Боғот туман ҳокими**
**вазифасини бажарувчи** **Ш.Яхшибаев**